

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№11

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 489 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

YASHIL TRANSPORT SIYOSATINING BARQAROR RIVOJLANISH VA TARMOQLARARO INTEGRATSIYADAGI O'RNI	21
Rahmonov Rasul Ne'matovich	
BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	34
Safarov Sanjar Ravshan o'g'li	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	38
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
HUDUDIIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELI	43
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	50
A.A. Ismailov	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIVAVIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI	56
Mansurov Mansur Alisherovich	
ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI	61
Aliqulov Aziz Haydarjonovich	
XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	66
Yormamatov Qodirjon Juraqulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	71
Yaxshiyev Shahzod Sherari o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJ TAJRIBALARI	78
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJRIBASI	84
Aripov Abdulaziz Sakijonovich	
YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH	89
Bobokulova Muhabbat Muhammadiyeva	
ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI	93
To'liqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	98
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
SOLIQ SIYOSATINI RAQAMLI BOSHQARISH ORQALI BUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISH STRATEGIYASI	103
Xodjimatomov Xamidullo Mamirjonovich	
OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	108
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi	
FARMASEVTIKA SANOATIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH	113
Yaqubov Timurbek G'anibekovich	
SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA AUTENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI	123
Ozoda Sabirova Shermamaxamatovna	



YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI	129
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
CHET EL MEHMONXONA TARMOQLARINING BRENDING STRATEGIYALARINI O'RGANISH	133
Ergashev Oybek Mamarasul o'g'li	
MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING MOLIVAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHLATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	144
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
TRANSPORT TIZIMI SOHASI KORXONALARININING INNOVATSION SALOHIVATINI BAHOLASH YO'NALISHLARI	152
Ismailov Akmal Maxsudovich, Abilqosimova Shaxlo Sodiql qizi	
MEHMONXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARINING O'RNI VA AHAMIVATI	158
Abduxamidov Sarvar Adxamovich, Normurodov Tal'at Normurod o'g'li	
KORXONALARDA HR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	163
Aminova Shaxnoza Aziz qizi	
JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQL-OVQAT XAFSIZLIK RO'LI	168
Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li	
ТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ КАРАКАЛПАКСТАНА И СУЩЕСТВУЮЩАЯ ИНФРАСТРУКТУРА	174
Хошимова Камилла Навфал кизи	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARI: REKREATIONS TURIZM SOHASIDA QO'LLASH TAJRIBASI VA ISTIQBOLLARI	184
Najmitdinov G'ayratbek Sharifovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIRTUAL TA'LIM PLATFORMALARI: TEXNIK VA PEDAGOGIK TALABLAR, TIZIMLI TAHLIL VA IQTISODIY JIHLATLAR	189
Turayeva Adiba Ikramovna	
ICHKI AUDIT TIZIMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	193
Nuridinova Barchinoy Xusniddin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTIDA SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	199
Xaitbaev Jasurbek Otaxanovich	
MINTAQANING EKSPORT SALOHIVATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	204
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	210
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
ISLOMIY MOLIVALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELEKTNING DOLZARBLIGI	217
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKINI SOLIQLA TORTISH MASALALARI	222
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	225
Abdukhalikova Komila Abdukhalikovna	
BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH	229
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI: TAHLIL VA TAKLIFLAR	233
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	
WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS	238
Abdullaev Erkinjon Azamovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA YASHIL MOLIVALASHTIRISHNING NAZARIY JIHLATLARI	245
Xalikov S. X.	



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORIDA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	245
Xudayberganov Jasur Baxodirovich	
WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS	251
Abdullaev Erkinjon Azamovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISH JARAYONINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	257
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	261
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RESURSLARNI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH.....	268
Avulchayeva Feruza Jurakuziyevna	
BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	272
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
ZAMONAVIY ISH JOYLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING ROLI	276
Tulyaganova Aziza	
ISLOMIY MOLIALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING DOLZARBLIGI.....	281
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
TURIZM MARKETINGINING NAZARIY ASOSLARI, ZAMONAVIY YO'NALISHLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	286
Xamidov Otabek Bakidjanovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TIZIMINI STATISTIK BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI	290
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
ЭКОЛОГАМ ПОЧЕТ И УВАЖЕНИЕ	298
Максудова Шахиста	
DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNING MOHIYATI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENTSIYALARI	304
Jo'raev Farruxbek Muxiddin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIALASHTIRISH XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	307
Inomjonov Islomjon Iloxomjon o'g'li	
ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	311
Abdukhlikova Komila Abdukhlikovna	
МОБИЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ.....	315
Хурамова Фарангиз Учкун кизи	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ НАЛОГОВ И АКЦИЗНАЯ РЕФОРМА УЗБЕКИСТАНА В ВТО	319
Дамир Рустамович Абдулов	
BANK TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR SHAROITIDA LIKVIDLILIK RISKINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	324
Alimov Baxtiyor Murodovich	
BANK AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	335
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH MASALALARI.....	343
Abdimuminova Saodat Taxirjonovna	
TO'QIMACHILIK SANOAT MAXSULOTLARI EKSPORT FAOLIYATI TAHLILI VA BRENDDA LIDERLIK TUSHINCHALARI	352
Abdulazizova Xushnoza Nayabovna	



ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МОДЕЛИ УПРАВЛЕНИЯ ОТХОДАМИ НА ОСНОВЕ ОПЫТА РАЗВИТЫХ СТРАН И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ АДАПТАЦИИ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	357
Д. Мейлиева	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TIZIMIDA KASBDOSHLAR TOMONIDAN BAHOLASH (PEER REVIEW) TIZIMINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	361
Parpiyev Jaxongir Ilhomjonovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И БОЛЬШИЕ ДАННЫЕ (BIG DATA) В УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЯХ.....	366
Шарипов Бахтиёр Михлибаевич	
O'ZBEKISTONDA SUVGA BO'LGAN TALABNI VAQTLI QATORLAR ORQALI TAHLIL QILISH	375
Sarvar Mamasoliyev	
BOSHQARUV VA NAZORAT MAQSADLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH	383
Isomuxamedov Akbarjon Boxodir o'g'li	
MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	389
Salomat NOROVA	
O'ZBEKISTON TURIZM BREND BOZORINING HOZIRGI HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	394
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODOLOGIYASI.....	404
Qodirov Baxodirjon Tursunovich	
O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHDA YAGONA INTERAKTIV DAVLAT XIZMATLARI PORTALINING O'RNI VA AHAMIYATI	408
Dehqonov G'ayratjon Raximovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION HAMDA TIJORATLASHTIRISH MASALALARI	414
Inoyatov Mardonbek Mo'min o'g'li	
OLIY IQTISODIY TA'LIM ORQALI EKO-INNOVATSIYALAR VA "YASHIL" INVESTITSIYALARNI RAG'BATLANTIRISH MEKANIZMLARI: SIYOSIY VA INSTITUTSIONAL DOIRALAR	418
Xasanova Zarina Maxamadaliyeva	
XODIMLAR MALAKASINI OSHIRISH — ZAMON TALABI.....	427
Narzullaev Oybek Narzullaevich	
BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHDA JURNAL-ORDER SHAKLINING AHAMIYATI.....	433
Axmedjanov Abdufoto	
KENDALL VA SPEARMAN TARTIBIY KORRELYATSIYA KOEFFITSIYENTLARI ASOSIDA YASHIL IQTISODIYOT INDIKATORLARINING STATISTIK O'ZARO TA'SIRINI MODELLASHTIRISH	437
Muradov Rustamjon Sobitxonovich	
ИНТЕНСИВНЫЕ И ЭКСТЕНСИВНЫЕ ОГРАНИЧЕНИЯ В РЕГУЛИРОВАНИИ СПРОСА.....	442
Аминджанова Румейса Батыровна, Камилова Наргиза Абдукахоровна	
ИНКЛЮЗИВНЫЙ ПОДХОД В ТУРИЗМЕ: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И УЗБЕКСКАЯ ПРАКТИКА	445
Азимова Шахло Таировна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTNING XAQARO STANDARTLARIGA O'TISHNING HOLATI VA TAHLILI	450
Bayjanov Sarsengaliy Xalmuratovich	
UZUM EKSPORT QILUVCHI KOMPANIYALARDA YASHIL O'TISH JARAYONINI QO'LLAB-QUVVATLASH UCHUN EKO-MARKETING VA AYLANMA IQTISODIYOT TAMOIYILLARINI INTEGRATSIYALASH.....	454
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA XARAJATLAR SMETASI VA SHTATLAR JADVALINING TAHLILI: OPTIMALLASHTIRISH VA SAMARADORLIKNING YANGICHA USULLARI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	461
Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li	
INVESTITSIYALARNING KIRIB KELISHIGA TO'SQINLIK QILUVCHI MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	467
Alimova Dilafro'z Tohir qizi	



FARMATSEVTIKA KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOBOT SHAKLLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA INVESTORLAR UCHUN AXBOROT OCHIQLIGINI TA'MINLASH	470
Turdikulova Gulshad Nurmamatovna	
ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING SHAFFOFLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINING AHAMIYATI.....	477
Uztemirov Alisher Aktam o'g'li	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT TARMOQLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHGA YO'NALTIRILGAN BANDLIK TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH	482
Tursunov Bekmuxammad Omonovich	



INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT TARMOQLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHGA YO'NALTIRILGAN BANDLIK TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH

Tursunov Bektuxammad Omonovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Mustaqil tadqiqotchisi., PhD. dotsent.

[Email: tursunov6b60@gmail.com](mailto:tursunov6b60@gmail.com)

ORCID: 0000-0001-9297-8361

Annotatsiya. Maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan bandlik tuzilmasini optimallashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning tarmoq tarkibini takomillashtirish shart-sharoitlari va imkoniyatlari tadqiq etilgan. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarida bandlikning optimal tuzilmaviy tarkibini shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi baholangan. Sanoat tarmoqlarida bandlikning tuzilmaviy tarkibini takomillashtirish hisobiga raqobatbardoshlikni oshirishga yo'naltirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion iqtisodiyot, innovatsion jarayon, innovatsion texnologiya, innovatsion bandlik, samarali bandlik siyosati, sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligi, bandlikning tuzilmaviy tarkibi, yalpi ichki mahsulotning tarmoq tarkibi, texnologik sanoat zonalar.

Abstract. The article explores the conditions and possibilities of improving the network composition of gross domestic product due to optimization of the employment structure aimed at ensuring the competitiveness of industries in the conditions of an innovative economy. In the context of an innovative economy, the socio-economic efficiency of the formation of the optimal structural composition of employment in industrial sectors is assessed. Scientific proposals and practical recommendations aimed at increasing competitiveness by improving the structural composition of employment in industrial sectors are formulated.

Key words: innovative economy, innovative process, innovative technology, innovative badness, effective employment policy, competitiveness of industrial sectors, structural composition of employment, sectoral composition of gross domestic product, technological industrial zones.

Аннотация. В статье исследуются условия и возможности улучшения сетевой структуры валового внутреннего продукта за счет оптимизации структуры занятости, направленной на обеспечение конкурентоспособности отраслей в условиях инновационной экономики. В условиях инновационной экономики оценивается социально-экономическая эффективность формирования оптимального структурного состава занятости в промышленных отраслях. Сформулированы научные предложения и практические рекомендации, направленные на повышение конкурентоспособности за счет улучшения структурного состава занятости в промышленных отраслях.

Ключевые слова: инновационная экономика, инновационный процесс, инновационная технология, инновационный потенциал, эффективная политика занятости, конкурентоспособность отраслей промышленности, структурная структура занятости, отраслевая структура валового внутреннего продукта, технологические промышленные зоны.



KIRISH

Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish tizimi va uning amal qilish mexanizmi ilm-fan sohasi bilan bevosita bog'liq bo'lganligi bois, ijtimoiy-iqtisodiy tizimni takomillashtirishga yo'naltirilgan islohotlar asosida ilm-fan sohasining yutuqlari alohida ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, ilm-fan sohasidagi samarali yutuqlar natijalarining Xitoy, AQSH, Janubiy Koreya, Yaponiya, Isroil kabi qator davlatlarda ishlab chiqarish va ijtimoiy sohadagi jarayonlarni loyihalashtirishni tashkil etishda keng qamrovli tarzda qo'llanilishi ishlab chiqarish omillarining sinergik samaradorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Natijada, ushbu mamlakatlarda ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil etishning ko'p vektorli tizimiga asoslangan texnologik munosabatlarning shakllanishi ichki va tashqi bozorlarda milliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyatlarining ortib borishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishga nisbatan progressiv jarayonlarni amalga oshirish tizimini takomillashtirish jarayonlari bu bilan to'xtab qolganligi yo'q, albatta. Xususan, to'rtinchi sanoat inqilobi (Sanoat 4.0)ning takomillashuvi ta'sirida axborot texnologiyalarini sanoatga ommaviy joriy etish imkoniyatlarining ortishi, biznes jarayonlarini keng miqyosda avtomatlashtirish va sun'iy intellektning tarqalishiga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etish, robototexnika, 3D-printer, bio va neyron texnologiyalarga asoslangan tizimli yondashuvlarni shakllantirish orqali sanoat korxonalari tomonidan iste'molchilarning xatti-harakatlarini keng miqyosli tahlil qilish hamda ishlab chiqarish hajmini prognozlash hisobiga maqsadli jarayonlarni samarali boshqarish imkoniyatlari ortib bormoqda.

Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishning 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiyasida sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish, 2,5 millionta yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish, yirik korxonalar tomonidan import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'ygan korxonalarni faol rag'batlantirish tizimini joriy etish, har bir tumanda zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etish kabi qator vazifalar belgilangan [1]. Mazkur vazifalarning ijro tizimini tashkil etish va mavjud sanoat komplekslarida ishlab chiqarishni tashkil etishning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish innovatsion iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta'minlash jarayonida tarmoqda shakllangan bandlikning tuzilmaviy tarkibiga alohida e'tibor berishni taqozo etadi.

O'z navbatida, ushbu zaruratning asosini sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tizimining vertikal va gorizontal diversifikatsiyasini ta'minlashga qaratilgan texnik va texnologik tizimni kengaytirish tashkil etadi. Bu esa sanoat sohalarida yuqori o'sish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan hududlar salohiyatidan foydalanishning iqtisodiy geografiyasini shakllantirishga imkon beradi. Shu kabi qator omillar innovatsion iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan bandlik tuzilmasini optimallashtirish imkonini beradigan tadqiqotlarni amalga oshirishning dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning fundamental asoslarini o'rganishga doir dastlabki tadqiqotlar J.A. Schumpeter tomonidan olib borilgan bo'lib, tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarning o'rni, ularning foydali va salbiy jihatlari Yevropa hamda Amerikadagi kapitalizm evolyutsiyasi va iqtisodiy sikllarning davriy almashinuvi orqali talqin etilgan [2]. Iqtisodchi olim B.Z. Milner tadqiqotlarida ishlab chiqarish munosabatlarini samarali tashkil etishda intellektual resurslarning o'rni va ularni tizimli taqsimlash mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish zarurligi ilgari suriladi. Shuningdek, innovatsion iqtisodiyotga o'tishga imkon beradigan bilimlarni boshqarish texnologiyalarini shakllantirishga kompleks yondashuvlar ishlab chiqish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi [3].

S. Perez innovatsion jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlari va davriyligini hisobga olgan holda texnologik inqiloblarning iqtisodiy tizimlarga ta'sirini o'rganadi. Uning tadqiqotida mikro va mezo darajada innovatsion jarayonlarni muvofiqlashtirishning institutsional hamda ijtimoiy jihatlarga e'tibor qaratilgan [4]. L.V. Sankova tadqiqotlarida innovatsion jarayonlarning ijtimoiy jihatlari tahlil qilinib, innovatsion bandlikning bandlik siyosatini amalga oshirishdagi gnoseologik salohiyati yoritilgan. Shuningdek, innovatsion bandlikka doir nazariy yondashuvlarni tizimlashtirish va asoslash orqali innovatsion bandlikning konseptual modeli hamda uni davlat, mintaqaviy va korporativ darajada baholash uslubiy yondashuvlari ishlab chiqilgan [5].

E.V. Vaxovskiy ilmiy tadqiqotlarida iqtisodiyotni zamonaviy transformatsiya va innovatsion rivojlanish jarayonlaridan ortda qolishi ishsizlikning o'sishiga hamda migratsiya oqimining kuchayishiga sabab bo'ladigan omillar sifatida ko'rsatilgan. Iqtisodiy faol aholini iqtisodiyotning innovatsion sohalarida ish bilan ta'minlash hududiy miqyosda samarali bandlik siyosatini tartibga solish hamda davlat, mehnat resurslari va ish beruvchilar o'rtasidagi mehnat munosabatlarining yangi shakllarini rivojlantirishga turtki bo'lishi ta'kidlanadi [6].



M.I. Postoyeva tadqiqotlarida innovatsion texnologiyalar ta'sirida bandlikning kasbiy va tarmoq tarkibidagi o'zgarishlarning bandlikning umumiy tuzilmasiga ta'siri hamda mehnat bozorida muvozanatni ta'minlashdagi o'zni asoslab berilgan. U innovatsion texnologiyalarning bandlikning kasbiy va tarmoq tuzilmasiga ta'sirini hisobga olib, aholi bandligini oshirishning milliy va hududiy yo'nalishlarini taklif etgan [7].

A.V. Kashepov ilmiy tadqiqotlarida sanoat, fan va ta'lim sohasidagi innovatsion jarayonlarning o'zni, qo'shilgan qiymatni shakllantirishda tarmoqlarning o'zini hisoblash metodikasi orqali aniqlanadi. Biroq tadqiqotda tarmoqlarda band bo'lgan aholining tuzilmaviy tarkibini yalpi ichki mahsulotni takror ishlab chiqarish jarayonidagi harakat bosqichlari bilan muvofiqlashtirish masalasiga yetarli e'tibor berilmagan. Shu bilan birga, tarmoqlarda shakllangan yalpi ichki mahsulotning bozor baholari asosida innovatsion rivojlanish modelini tanlash yondashuvi ilgari surilgan [8].

L.T. Baituova, Z.M. Shaukerova, D.M. Aikupesheva va V.B. Doskalieva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyot ishlab chiqarish munosabatlaridan ko'ra nomoddiy ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishning bir qismi sifatida talqin etilgan. Shuningdek, eng yuqori malakali ishchi kuchini jalb qilish hisobiga ishlab chiqarish jarayonlarida mavjud kapitaldan samarali foydalanishning iqtisodiy asoslarini shakllantirishga xizmat qiladigan model sifatida baholangan [9].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari Q.J. Mirzayev, E.Sh. Shavqiyev va B.Q. Jonuzoqov tadqiqotlarida mamlakat iqtisodiyoti sanoatlashuvining zamonaviy bosqichida inson omilining ta'limiy va kasbiy salohiyatini innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari bilan muvofiqlashtirishning tashkiliy asosini shakllantirishdagi roli yoritilgan [10]. E.E. Rustamov tadqiqotlarida iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida aholining ish bilan bandligining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinib, bandlikning innovatsion shakllari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlangan. Shuningdek, innovatsion iqtisodiyot uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliy ta'lim muassasalarining o'zni va vazifalari tahlil qilinib, raqamli iqtisodiyot sharoitida bandlikni oshirish yo'nalishlari aniqlashtirilgan [11].

G. Umarova tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotning innovatsion faollik darajasini baholash ko'rsatkichlari, ularning iqtisodiy o'sish va samarali bandlikka ta'siri bilan bog'liq munosabatlar tahlil qilingan. Shuningdek, iqtisodiyotda bandlikning innovatsion shakllari kengayishining samarali bandlik munosabatlarini ta'minlashdagi o'zni asoslab berilgan [12].

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlarda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida bandlikni tashkil etish tizimi, innovatsion bandlikning shakllanish xususiyatlari hamda uning tarmoq va hududiy iqtisodiy rivojlanish tizimidagi o'zni masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Biroq innovatsion iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan bandlikning optimal tashkiliy tuzilmasini shakllantirish hamda sanoat tarmoqlarida bandlikning tuzilmaviy tarkibidagi o'zgarishlarning raqobatbardoshlikni oshirishdagi o'zni yetarlicha o'rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida innovatsion iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan bandlik tuzilmasini optimallashtirishga doir munosabatlarni o'rganishda ilmiy bilishning mantiqiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tizimli hamda statistik tahlil usullaridan keng qamrovli tarzda foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda innovatsion iqtisodiyot kategoriyasiga nisbatan ko'plab nazariy yondashuvlar mavjud. Ushbu yondashuvlarga muvofiq, innovatsion iqtisodiyot — ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari to'xtovsiz harakatda bo'lib, ularning tashkil etish mexanizmi ilm-fan yutuqlariga asoslangan, jarayonlar avtomatlashtirilgan, intellektual mahsulotning tijoratlashuvi hisobiga fan va texnika taraqqiyoti uzluksiz takomillashib boradigan iqtisodiyot sifatida ta'riflanadi. Ushbu ta'rifdan kelib chiqib aytish mumkinki, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish hisobiga ularning uzluksiz ishlashi ta'minlanadi. Natijada, insonning jismoniy mehnatidan foydalanish darajasi kamayib, intellektual salohiyatdan foydalanish ko'rsatkichlari ortib boradi. Ilm-fan yutuqlariga asoslangan, intellektual mahsulotlarni tijoratlashtirish orqali fan va texnika taraqqiyotini bozor talablariga muvofiq kengaytirish imkoniyati yuzaga keladi.

O'z navbatida, bu jarayonlarda maqsadli ko'rsatkichlarni ta'minlash ilm-fan yutuqlari ta'siri ostida kengayib boradi. Bu esa iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari uchun innovatsion talablar asosida ilmiy-texnik kadrlarni tayyorlash hamda qayta tayyorlash tizimini takomillashtirishni zarur qiladi. Natijaviy omillar mehnat bozorida kadrlar raqobatbardoshligini ta'minlash, ularni mehnat jarayonlariga doimiy yoki vaqtinchalik tartibda jalb etish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda, ayniqsa, davlat tashkilotlariga ishga kirish jarayonlarida klassik metodlar — test sinovlari va og'zaki suhbatlar — ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Biroq bu usullar xodimlarning




kreativ qobiliyatlarini to'liq namoyon etish imkonini bermaydi. Shu bois, malaka talabi va kasbiy ko'nikma tushunchalarini farqlash zarur. Xodimning malaka talabi ish jarayonini tashkil etishning asosiy qoidalarini o'zida mujassam etgan bo'lsa, kasbiy ko'nikma mehnat munosabatlari davomida sayqallanadi. Shu sababli, "xodim me'yoriy-huquqiy hujjatlardan yetarlicha xabardor emas" degan asos ma'lum ma'noda o'rinsiz, chunki ishga qabul qilingan xodim faoliyat jarayonida tegishli hujjatlarga bevosita murojaat qiladi. Bu holat ish jarayonining o'ziga xos tarkibiy qismidir.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida tarmoqlarda kapital harakatining mutanosib kombinatsiyasini ta'minlashda inson kapitalining o'zni tobora ortib bormoqda. Tarmoqlar faoliyatida inson kapitalining qiymati uning sifat ko'rsatkichlari orqali namoyon bo'ladi. Bu ko'rsatkichlar mehnat munosabatlarini individuallashtirish, xodimlarning ish natijalari uchun shaxsiy va ijtimoiy javobgarligini oshirish hamda ma'lum jarayonlarni siklik asosda muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan bandlik tuzilmasini tashkil etish jarayonida ushbu jihatlar muhim o'rin tutadi.

Sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan bandlik tuzilmasi sanoat ishlab chiqarishning miqdoriy va sifat jihatlarini o'zgartirish bilan bir qatorda, inson kapitalining ijodkorligi hamda innovatsion faolligiga tayangan holda tovar va xizmatlar xilma-xilligini kengaytirish imkonini beradi. Biroq ushbu natijadorlikka erishish uchun mehnat resurslarini ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlaridagi rolini oshirishga xizmat qiladigan bandlik tuzilmasini optimallashtirish tizimini shakllantirish zarur.

Fikrimizcha, innovatsion iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan bandlik tuzilmasini optimallashtirish tizimini quyidagi shaklda ifodalash o'rinli (1-rasm).



1- rasm. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan bandlik tuzilmasini optimallashtirish tizimi [13]

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan bandlik tuzilmasini optimallashtirish tizimining asosini belgilangan model asosida shakllantirish jarayonida, sanoat tarmoqlarida raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiladigan bandlikning tashkiliy tuzilmasini tartibga soluvchi siyosatni ishlab chiqish va uning amal qilish mexanizmini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur siyosatni shakllantirish hamda takomillashtirish jarayonlari sanoat tarmoqlarida bandlikni ilmiy va muhandislik ekspertizasi asosida amalga oshirishni nazarda tutadi. O'z navbatida, sanoat tarmoqlarida bandlikning ilmiy va muhandislik ekspertizasi sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan bandlikning me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish jarayonlariga samarali ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayon



sanoatning yuqori texnologik tarmoq tarkibini shakllantirish orqali sanoat tarmoqlarida innovatsion texnologiyalar diffuziyasini ta'minlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan bandlikning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari sanoat ishlab chiqarishda mehnatni tashkil etishning innovatsion yondashuvlariga tayanadi. Bunday yondashuv innovatsion faoliyatni moliyalashtirish va tijoratlashtirish tizimini bozor transformatsiyasiga o'tkazishga xizmat qiladi. Umumiy natijadorlik sanoat tarmoqlarida innovatsion texnologiyalar diffuziyasini takomillashtirish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, natijaning ijobiy qiymatini ta'minlash uchun sanoat tarmoqlarining innovatsion faolligini kuchaytirishga yo'naltirilgan kadrlar tayyorlash tizimini ishlab chiqish jarayoni alohida e'tibor talab etadi.

Fikrimizcha, bandlik tuzilmasini optimallashtirishning innovatsion vektori ushbu jarayonning asosini shakllantirishda zarur o'zgarishlar kiritish yoki uni takomillashtirish bo'yicha muhim xulosalar chiqarishga imkon beradi.

2020–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmoqlarida bandlik darajasining o'zgarishi bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, ishlab chiqarish sanoati tarmog'i sanoatdagi umumiy bandlikning eng yuqori ulushini ta'minlagan. Xususan, ushbu tarmoqda 2020-yilda jami sanoat tarmoqlaridagi bandlikning 65,5 foizi ta'minlangan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 78 foizga yetgan (1-jadval).

1-jadval. 2020-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmoqlarida bandlik darajasini o'zgarishi (foizda) [14]

	2020	2021	2022	2023	2024
jami sanoat	100	100	100	100	100
shu jumladan:					
tog'-kon sanoati	15,5	10,2	9,4	9,3	9,7
ishlab chiqarish sanoati	65,5	73	76	77,9	78
qayta ishlash sanoati	19	16,8	14,6	12,8	12,3

2020–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmoqlarida bandlik darajasining o'zgarish sur'atlari bo'yicha ishlab chiqarish sanoatidan keyingi o'rinni boshqa tarmoqlar egallaydi. 2020-yilda ushbu tarmoq jami sanoat tarmoqlarida bandlikning 19 foizini ta'minlashga hissa qo'shgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 12,3 foizni tashkil etgan. Yillar kesimida sanoat tarmoqlarining jami bandlikni ta'minlashdagi o'rni pasayish tendensiyasini namoyon etgan.

Tog'-kon sanoati esa 2020-yilda jami sanoat tarmoqlarida bandlikning 15,5 foizini ta'minlashga o'z hissasini qo'shgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu tarmoqning sanoatdagi bandlikni ta'minlashdagi ulushi 9,7 foizgacha qisqargan.

2020–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmoqlarida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish ulushining o'zgarish darajasi sanoat tarmoqlarida bandlikning o'zgarish sur'atlari bilan proporsional bog'liqlikka ega. Xususan, ishlab chiqarish sanoati tarmog'i jami sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi tarmoq bo'lib, 2020-yilda jami sanoat mahsulotlarining 81,8 foizi aynan shu tarmoqda ishlab chiqarilgan. 2024-yilda esa ushbu ko'rsatkich 83 foizga yetgan.

Shuningdek, tog'-kon sanoati 2020-yilda jami sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda 8,1 foiz ulushga ega bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib mazkur tarmoqning sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi ulushi 9 foizni tashkil etgan (2-jadval).

2-jadval. 2020-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmoqlarida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish ulushining o'zgarishi (foizda)[14]

	2020	2021	2022	2023	2024
jami sanoat	100	100	100	100	100
shu jumladan:					
tog'-kon sanoati	8,1	10,3	12,3	13,5	9
ishlab chiqarish sanoati	81,8	81,1	80,6	79	83
qayta ishlash sanoati	10,1	8,6	7,1	7,5	8



2020–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmoqlarida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda qayta ishlash sanoati tarmog'ining ulushi 10,1 foizdan 8 foizga pasaygan. Sanoatning ushbu tarmog'ida jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonidagi ulushga nisbatan yillar kesimida pasayish tendensiyasi qayd etilgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, mamlakatimiz sanoat tarmoqlarida bandlikni ta'minlashning klassik modeli ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ushbu yo'nalishda bandlikni ta'minlash jarayonlarida tarmoqning texnik imkoniyatlarining ortishi sanoat ishlab chiqarishning miqdoriy hamda sifat jihatlarining o'zgarishiga olib keladi. Biroq sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida turg'un texnologik munosabatlarning saqlanib qolishi natijasida ishlab chiqarish hajmi oshgan taqdirda ham mehnat sig'imining ortishi hisobiga sanoat ishlab chiqarishining raqobatbardoshlik darajasi pasayadi. Natijada, tarmoqda band bo'lgan mehnat resurslarining ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil etishdagi asosiy motivi bo'lgan nominal va real ish haqi o'rtasidagi tafovut ortib boradi.

Bu kabi holatlar innovatsion iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan bandlik tuzilmasini optimallashtirish paradigmasiga nisbatan e'tibor ortib borayotganini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsion iqtisodiyot rivojlanishining turli bosqichlarida sanoat ishlab chiqarishni tashkil etish tizimida bandlik siyosatini amalga oshirish mexanizmining asosiy negizi inson omiliga tayanishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, innovatsion iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta'minlashda bandlikning tuzilmaviy tarkibini inson omiliga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi bir vaqtning o'zida ko'p omilli rivojlanish vektoriga ega bo'lgani sababli, turli xil faoliyat yo'nalishlarining shakllanishi mehnat bozorini rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida, sanoat tarmoqlarida vujudga keladigan innovatsion texnologiyalarning ishlab chiqarish munosabatlarini muvofiqlashtirishdagi o'zni texnologiyalar almashinuvining milliy va hududiy darajadagi faoliyatini tartibga solishni talab etadi. Bu jarayon bandlikning tarmoq darajasida optimal tuzilmaviy tarkibini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, sanoat ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalar va innovatorlik faoliyati o'rtasidagi sinergiya effekti masshtablarini belgilash orqali hududlar o'rtasida sanoat salohiyatidan foydalanishdagi tafovutlarni qisqartirish mumkin. Bu esa sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan bandlik tuzilmasini optimallashtirish paradigmasini shakllantirishga imkon beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, innovatsion iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan bandlikning tuzilmaviy tarkibini shakllantirishda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- sanoat tarmoqlarining YAIM tarkibidagi ulushini kengaytirishga asoslangan tarmoq dasturlarini shakllantirish orqali yuqori innovatsion salohiyatga ega tarmoqlarda mehnat resurslarini samarali shakllantirish jarayonini tartibga solish;
- sanoat tarmoqlarida innovatsion jarayonlarning mehnat munosabatlariga ta'sirini baholovchi monitoring tizimini yaratish va tarmoqdagi innovatsion faoliyatni tashkil etuvchi subyektlar o'rtasida samarali integratsiya mexanizmini shakllantirish;
- ishlab chiqarishning turli bosqichlarida innovatsion texnologiyalar harakatini tizimli tashkil etishga yo'naltirilgan modellarning xatti-harakat algoritmlarini ishlab chiqish orqali sanoat tarmoqlarida innovatsion siklning maksimal samaradorligini ta'minlash;
- yuqori texnologiya talab qiluvchi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish orqali innovatsion tadbirkorlikning ishlab chiqarish jarayonidagi tarkibiy o'zgarishlarga ta'sirini kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "“O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-sonli Farmoni.
2. Schumpeter J.A. Essays On entrepreneurs, innovations, business cycles, and the evolution of capitalism / Joseph A. Schumpeter; Ed. by Richard V. Clemence; With a new untrod. by Richard Swedberg. — Reprint, 2nd print.. — New Brunswick (N.J.) : Transaction publishers, 1991. — XXXIX, 341 p.
3. Milner, B.Z. 2009. Innovative development: economy, intellectual resources, knowledge management. - M.: INFRA-M, 624 p.
4. Perez, C. 2005. Technological revolutions and techno-economic paradigms / C. Perez. — Working Papers in Technology Governance and Economic Dynamics no. 20 — Tallinn: Tallinn University of Technology. 26 p.
5. Санкова Л.В. Занятость инновационного типа: теория, методология исследования, управление : автореферат дис. ... доктора экономических наук : 08.00.05 / Санкова Лариса Викторовна; [Место защиты: Моск. гос. ун-т им. М.В. Ломоносова]. — Москва, 2008. — 48 с.



6. Ваховский Е.В. Трансформация занятости в условиях инновационного развития экономики: автореферат дис. ... кандидата экономических наук: 08.00.05 / Ваховский Евгений Вячеславович; [Место защиты: Рос. акад. нар. хоз-ва и гос. службы при Президенте РФ]. — Саратов, 2016. — 29 с.
7. Постоева М.И. Изменения в профессионально-отраслевой структуре занятости населения под воздействием инновационных технологий: автореферат дис. ... кандидата экономических наук: 08.00.05 / Постоева Мария Ивановна; [Место защиты: Моск. гос. ун-т им. М.В. Ломоносова. Экон. фак.]. — Москва, 2011. — 27 с.
8. Кашепов А.В. Отраслевая структура занятости населения в регионах России // Вестник Алтайской академии экономики и права. 2024. № 3-3. С. 396-404.
9. Baituova, L. T., Shaukerova, Z. M., Aikupesheva, D. M., & Doskalieva, B. B. (2018). Development of human resources in the conditions of the industrial innovation-driven economy of Kazakhstan. Journal of Advanced Research in Law and Economics, 9(6), 31–37. [https://doi.org/10.14505/jarle.v9.6\(36\).01](https://doi.org/10.14505/jarle.v9.6(36).01)
10. Мирзаев Қ.Ж, Шавқиев Э.Ш, Жонузоқов Б.Қ. Инновацион иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисод-молия, 2019. – 251 бет.
11. Рустамов Э.Э. Иқтисодиётни иновацион ривожлантириш шароитида аҳолининг иш билан бандлик даражасини ошириш йўллари. Иқтисодиёт фанлари доктори (PhD) диссертацияси автореферати – Т.: 2019.–66 б.
12. Umarova G. (2024). Innovatsion iqtisodiyot sharoitida aholi ish bilan bandligining yangi shakllari va turlarini tashkil etish. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss8-pp163-169>
13. Tadqiqot natijalariga muvofiq muallif tomonidan shakllantirilgan.
14. www.stat.uz- O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy axborot sayti ma'lumotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
